



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ABDULLA QODIRIY IJODIDA TANQIDIY REALIZM VA BADIY-ESTETIK TASVIRLAR UYG'UNLIGI

Qosimov Kozimjon Isoqovich

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqola Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari, satirik asarlari, felyetonlari va ilmiy asarlari asosida uning tanqidiy realizm hamda badiiy-estetik qarashlarini falsafiy jihatdan tadqiq etish, ijodkorning adabiy tanqidchilik va satirik tanqidga oid qarashlari, badiiy-estetik prinsiplarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: go'zallik, ulug'vorlik, kulgililik, fojiaiylik, xunuklik, estetik did, estetik g'oya, estetik ideal, haqiqat, ezgulik, satira, badiiy tanqid.

СОЧЕТАНИЕ КРИТИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА И ХУДОЖЕСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Косимов Козимжон Исокович

Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения, Преподаватель

Аннотация

Статья посвящена к философскому анализу художественно-эстетического воззрения и критического реализма Абдуллы Кадири на основе его исторических романов, сатирических произведений и к исследованию научных статей, посвящённые к теории литературной и сатирической критики.

Ключевые слова: прекрасное, возвышенное, смешное, безобразие, трагическое, эстетический вкус, эстетический идеал, истина, добро, сатира, художественная критика.

THE COMBINATION OF CRITICAL REALISM AND ARTISTIC AND AESTHETIC IMAGES IN THE WORK OF ABDULLAH QADIRI

Qosimov Kozimjon Isoqovich

Fergana Institute of Public Health, Teacher

Abstract

The article is devoted to the philosophical analysis of the artistic and aesthetic outlook and critical realism of Abdullah Qadiri on the basis of his historical novels, satirical works and to the study of scientific articles devoted to the theory of literary and satirical criticism.

Keywords: beautiful, sublime, funny, ugliness, tragic, aesthetic taste, aesthetic ideal, truth, goodness, satire, art criticism.

So'nggi yuz yil mobaynida buyuk o'zbek mutafakkiri va adibi Abdulla Qodiriyning boy merosi, ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy-tasavvufiy va badiiy-estetik g'oyalari mamlakatimiz va jahon olimlarining tadqiqot obyekti bo'lib keldi. Taniqli adabiyotshunos Omonulla Madaev ta'kidlaganidek, "Abdulla Qodiriy butun ijodi davomida yaratgan romanlari, dramatik asarlari, hikoyalari, felyetonlari, maktublari, ilmiy asarlarida tarixchi, etnograf, faylasuf, tilshunos, folklorshunos, adabiyotshunos-olim, eng muhimi, mumtoz, go'zal so'z sohibi sifatida ijod qildi" [1; 21].

Abdulla Qodiriy XX asr boshlarida Turkiston tarixida ro'y bergan buyuk ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar dunyoga keltirgan Milliy uyg'onish davrining eng faol ijodkorlaridan biri

sifatida nafaqat jahon romanchiligi tarixida, balki badiiy-adabiyotning satira, yumor va adabiy tanqidchilikning shakllanishida ham Sharq va G'arb adabiyotining eng ilg'or an'alarini yangicha shakl va mazmun bilan boyitgan novator ijodkor sifatida tanildi. Mustabid sovet tuzumi milliy qadriyatlarga, milliy his va madaniyatga, milliy o'zlikni anglash va milliy mustaqillikka qarshi shafqatsiz kurashgan yillarda barcha taraqqiyparvar jadidlarni, jumladan, Abdulla Qodiriyning jismon qatag'on qilgan bo'lsa ham, biroq uning hayotbaxsh va ilg'or g'oyalarini, buyuk asarlarini yo'q qila olmadi. Zero, "Shaxslarning ovozi o'chirish, yurtidan badarg'a qilish yoki jismon yo'q qilish mumkin, biroq ular hayotining ma'nosiga aylangan taraqqiyparvar g'oyalarini yo'q qilish, shaxslarni mag'lub etish mumkin emas. Shaxslar hamisha g'olib va abadiyatga daxldordir" [2; 15].

Abdulla Qodiriyning badiiy-estetik qarashlarini tadqiq etish, birinchidan, buyuk ijodkorning mahorat sirlarini, uning manbalari, vositalari va usullarini egallashda; ikkinchidan, jahonda ro'y berayotgan globallov jarayonlarining xatarli oqibatlarini bartaraf etish, milliy o'zlikni anglash, saqlash va yosh avlod ongiga singdirishda beqiyos milliy-ma'naviy qadriyatdir. Shu boisdan ham buyuk ijodkorning badiiy-estetik merosini xolis o'rganish nafaqat ilmiy-falsafiy, balki amaliy ahamiyatga molikdir. Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan ilg'or ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash Abdulla Qodiriy merosini ilk bor falsafiy-estetik aspektida tadqiq etish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Mazkur ishda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyoslash, deterministik yondashuv, kreativlik metodlaridan foydalanildi.

Abdulla Qodiriyning badiiy-estetik qarashlari hozirgacha rubrikamiz filolog-olimlari: G'ani Abdurahmonov, Umarali Normatov, Matyoqub Qo'shjonov, Ibrohim G'afurov, Bahodir Karim tadqiqotlarida, shuningdek, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shukrullo, Mirtemir va boshqa adiblarning asarlarida, Hadicha Lutfiddinova, S. To'laganova, Latofat Toshmuhamedova va boshqa tadqiqotchilarning maqolalarida asosan filologik aspektida tadqiq etildi. Afsuski, bu muammo faylasuflar e'tiboridan chetda qolib keldi.

Akademik G'. Abdurahmonovning yozishicha, "XIX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, XX asrning boshlari milliy uyg'onish davri bo'ldi, madaniyatga, maorifga katta ahamiyat berildi, milliy adabiy tilni, yozma milliy uslubni shakllantirish uchun kurashlar bo'ldi. Bu kurashning oldingi safida Abdulla Qodiriy va uning safdoshlari turdilar" [3;38]. Taniqli adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov Abdulla Qodiriy badiiy-estetik mahoratining hozirgacha sirli bo'lib qolayotgan qirralarini tadqiq etishning naqadar muhimligi haqida: "Har bir xalq uchun g'oyat aziz bo'lgan milliy tuyg'u to'g'risida o'ylar ekanman, garchi Qodiriy haqida yuzlab ilmiy asarlar yaratilgan bo'lsa-da, uning ijodini hanuz teran idrok etishga ojizlik qilayotganimizga iqror bo'lgim keladi. O'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni xas-po'shlash emas, balki samimiy tarzda shunga iqror bo'lish, saboq chiqarishgina bizni yangilashdan asraydi, haqiqat va adolat sari yetaklaydi" [4;8], — deb yozdi.

Tadqiqot va natijalar. Ijtimoiy hodisalarni satira va yumor vositasida kulgili qilib tasvirlash orqali kitobxon e'tiborini ijtimoiy hayotdagi kamchilik, nuqson va illatlarga jalb etish so'z san'atiga xos estetik hodisa hisoblanadi. "XX asr o'zbek adabiyotiga nazar tashlansa, jahon adabiyoti mezonlariga mos keladigan satira va yumor 20-yillar adabiy muhitida paydo bo'la boshlagani ko'rinadi. Abdulla Qodiriy adabiy merosining bir qismi hajviy asarlardan iborat" [5;480].

Abdulla Qodiriy 20-yillarda o'zining felyeton, hajviya va hangomalari bilan tanildi. Ayniqsa, 1923 yilda "Mushtum" jurnalining tashkil etilishi ham uning nomi va faoliyati bilan bog'liq bo'lib, milliy uyg'onish va taraqqiyyot yo'lidagi chirkin illatlar, diniy mutaassiblik, jaholat va qoloqlikka qarshi kulguli asarlar o'sha davr kishilarida juda katta qiziqish va jonlanishga turtki berdi. Abdulla Qodiriy o'zining kulguli asarlarini Dumbul, Ovsar, Julqunboy, Kalvak Maxsumning jiyani, Kalvak Maxsum, Toshpo'lat tajang, Shilg'ay singari taxalluslar

bilan e'lon qildi. "Mushtum" mualliflari o'z tanqidiy maqolalarida dushman ta'qiblaridan o'zlarini himoyalash maqsadida "Muxbir", "Shapaloq", "Beandisha", "Mag'zava", "Chafan", "Yamoqchi", "Dardmand", "Iblis", "Zarra", "Sanj'ar", "Eski qo'rqoq", "Chalpak", "Tirrancha", "Gruppaboz", "Yo do'st" singari laqab (taxallus)lardan foydalanganlar.

Habibulla Qodiriyning yozishicha, "Abdulla Qodiriy "Mushtum"da va keyingi yillardagi turli gazeta-jurnallarda bosilgan hajviy tanqidiy maqolalarida ellikdan ortiq maxfiy taxalluslarni qo'llagan" [6;32-38].

Abdulla Qodiriy islom dini va tasavvufiy ta'limot asoslarini puxta bilganligi uchun o'zining hajviy va kulgili asarlarida hech qachon insonning jismoniy yoki aqliy kamchiliklari ustidan kulgan emas. "Abdulla Qodiriy butun hayoti, faoliyati va ijodi davomida diniy ishonch va e'tiqodiga sodiq qoldi. Musulmonchilikning farz va sunnat amallarini to'la ado etdi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, "Obid ketmon" qissasining barcha ijobiy qahramonlari islom ma'rifati bilan qalbi nurlangan komil insonlar edilar" [7;32-38]. Imon-e'tiqodli ijodkor o'z qahramonlarining insoniy sha'nini hurmat qilgani holda xarakter (xulq-atvor) kulgusiga alohida urg'u berdi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, zamon talablaridan orqada qolgan ilmsiz, qo'pol, tajang, qo'rs va ayni vaqtning o'zida cho'rtkesarlik Toshpo'lod tajangning ijtimoiy hayotdagi yangiliklar, o'zgarishlarga bo'lgan xolis munosabatini uning so'zlari, fe'lu atvori, dunyoqarashi orqali haqqoniy, ya'ni nima desa, shundayligicha qog'ozga tushirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Abdulla Qodiriy o'ziga zamondosh bo'lgan jadidchilardan farqli ravishda tanqidda ijodkorni faollikka undovchi, haqiqatga yetaklovchi qudratli kuchni ko'rdi. Abdulla Qodiriy tanqidning ikki turini – jiddiy (adabiy- K.Q.) tanqid va hajviy tanqidni bir-biridan farqlar ekan, adabiy tanqid ilm ahli uchun, hajviy tanqid esa avom uchun xosligi haqida: "Jiddiy tanqid o'zining kuzatgan nishonasi ustida o'zgarishlar yasasa ham, ammo ko'pincha avomga majhulroq bo'lib, u yuqori tabaqa – ziyolilarga xos".

"Jiddiy tanqid turmushning har bir ko'chasiga kirib chiqa olmaydi, shu bois u ommaviylik xususiyatidan yiroqdir. Tanqidning ikkinchi xili bo'lgan hajviyani (satira ma'nosi bilan) ommaviy deyilsa bo'ladi. Chunki kulki tanqid – turmush bo'ylab uchquchi burgutdir: hayot sharoitiga yaramagan, zaif, qizg'anch (ayanchli), manfur (nafrat uyg'otuvchi), muzir (zararli) va shuning singari unsurlar unga emdir. Hajviy tanqid avom ruhiga yaqin, u his etgan, ammo ifoda eta olmagan masalalarga tarjimondir" [8;315].

Qodiriyga ko'ra, buzuq ijtimoiy muhit buyuk ijodkorlarni kulgili asarlar yaratish orqali illat va nuqsonlarni bartaraf etishga undaydi. Italiyada Dante, Ispaniyada Servantes, Rossiyada Gogol singari jahonga mashhur kulgi ijodkorlarini nosog'lom va buzuq muhit dunyoga keltirdi. Qodiriyning ta'kidlashicha, faqat matbuotdagina emas, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tanqidiy yondashish muvaffaqiyat garovidir. "Hayotni yangidan yangi muvaffaqiyatlarga sudrag'uvchi, ma'rifat degan muammoning kalidi, madaniyat dunyosining beshigi ana shu tanqididir" [9;296].

Abdulla Qodiriy shaxsi va ijodiy faoliyati uchun universalizm xos bo'lib, kulgili asarlari, roman va hikoyalarida estetikaning ulug'vorlik va pastkashlik, go'zallik va xunuklik, komiklik (kulgililik) va tragizm (fojiaviylik), mo'jizaviylik va sirlilik kategoriyalaridan mohirona foydalandi. Bu esa asarlarining qiziqarli, jozibador, mazmundor va zavqli bo'lishini ta'minladi.

Har qanday san'at asarida bo'lgani kabi so'z san'ati kitobxonda estetik his, estetik did va estetik idealni rivojlantirish orqali san'atkor-yozuvchi ilgari surayotgan badiiy-estetik g'oyani o'zlashtirish jarayonida ijtimoiy ahamiyatli va foydali bilim hosil qiladi, voqelikka nisbatan faol estetik munosabatda bo'ladi: barcha ijobiy, foydali narsa va hodisalarni go'zallik, ulug'vorlik sifatida idrok etadi. Olamni go'zallik qonunlari asosida yaratish, takomillashtirish uchun ma'naviy ehtiyoj sezadi.

Olamni hissiy-emotsional bilish, idrok etish aqliy-intellektual va intuitiv bilishni inkor etmaydi. Balki ular bir-birini taqozo etadi. Shaxsning garmonik rivojlanishi uning ayni bir vaqtning o'zida ham aqliy, ham hissiy rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Jahonga mashhur buyuk aql egalarining musiqa, rassomlik, qo'shiq, she'riyat va boshqa san'at turlari bilan faol shug'ullanishlari bejiz bo'lmagan.

Buyuk mutasavvif-shoir Jaloliddin Rumi: "Qanday bo'lsang, shunday ko'rin, qanday ko'rinsang, shunday bo'l" der ekan, insonning zohiriy va botiniy, jismoniy va ma'naviy borlig'i bir-biriga mutanosib, mos va muvofiq bo'lishi zarurligini ta'kidlagan [10].

Abdulla Qodiriy adabiy tanqidning maqsadi va mohiyatida ijodiy tafakkurning ravnaqini ko'rdi. "Mushtum"ning 1924 yil 25-sonida chop etilgan "Do'stlarga uzrim" maqolasida hamkasblarining "Mushtum"da chop etilayotgan maqolalarga bepisandligi, befarqligini ayovsiz tanqid qildi: "Mushtum"ning birorta soniga kundalik matbuotimizda tanqid yo taqriz yozildimi? "Buning tuzuk, uning chakki" degan yo'l-yo'riq ko'rsatildimi? Bunga qanday ma'no berish kerak: kundalik matbuotimizning hamoqati (ahmoqligi, nodonligi) deymizmi, mag'ruriyati deymizmi, nima axir? Lekin bu "Mushtum" uchun haqoratdir" [11;223]. Bunday loqaydlikka javoban buyuk adib aslo toqat qilib bo'lmasligini ta'kidlar ekan, o'zining qat'iy qarorini shunday ifoda etdi: "Kelasidagi kulgulik bog'imizning bulbuli emas, tikoni bo'lmog'imni-da iqror etaman. Gul og'ochidan boshlab, chechak emas, tikanak o'sadirki, eng ozi shu holni kuzatib, ajzimni (ojizligimni) iqror qilishqa majburman. Binoan alayhi, so'zim qo'pol, muomalam dag'al, latifim achchiq, mutoyabam xunuk; kuldrib yig'latish, achitmay to'qinish hunarlari manda yo'q" [12].

Qodiriy o'zining bunday pokiza, beg'araz koyishlaridan shaytoniy, buzuq xulosalar chiqaradigan ichi qora, saviyasi past "fattoyi kofi" (kovush patagi)lar oz emasligini ham aytadi: "Lekin man o'shanday shumshuk (nochur) maxdumlardan satqai xafalik qilaman. Chunki shul kungacha manim mezonim vijdonim bo'lib keldi, bundan so'ng ham jilovim o'shanning qo'lida. Demak, manim istiqbolim ta'min etilgandur. Uzrim shul: tilasang yig'la, tilasang kul!" [13].

A. Qodiriy Turkistonda surunkali hukm surgan buzuq ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun satira va yumorning o'tkir tig'idan foydalanishda jahonga mashhur kulgi ustalari: Ispaniyada Servantes, Italiyada Dante, Rossiyada Gogol singari ijodkorlarning asarlari yaratilganligini juda yaxshi bilar, ularning ayrim kulgu asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan edi. U 1924 yil yozida Moskvaga, Bryusov jurnalistlar institutiga o'qishga borganida beixtiyor yevropaliklarning kiyinish madaniyati bilan turkistonlik savdogar yurtdoshlarining kiyinish madaniyati o'rtasidagi tafovutga e'tibor berdi. Uning Moskvadan olgan taassurotlari "Maskov xatlari" nomi bilan "Mushtum"da muntazam chop etildi. Muallif yozadi: "Goho Turkiston va Buxorodan bu yerga savdo uchun kelgan sudratma chopon, yopma salla (do'ppining o'rniga matoning o'zini boshga tashlab, o'raladigan salla) akalarga uchrab qolishlar ham bo'ladi. Salla-chopon, kavsh-maxsi, belboqqa qistirilgan kir yovliq (dastro'mol), ayniqsa, maxsining qo'njiga havsala qilgan keng kovul ishton, bularning ustiga qo'ldagi qahrabo tasbih... hammasi ham joyida. Akamning o'zlaricha aytganda, "chin musulmon", o'zimga qo'yib bersangiz "tirik namoyish" bu afandini ko'rish bilanoq yeganim og'zimda, yutganim bo'g'zimda qoladir... Balki anuvlardan uyalib seskanarsan, dersiz. ... Bu yerda seskantiradigan omilning kattasi boshqa gap. Boshni chulg'ab olgan salla bilan yer supirib yurgan to'n ostida bilasizmi, qanaqa lash-lush bor? Hozirgi kunda tilga olishkina emas, oyoqqa bosish ham uyat bo'lgan bu akamning fikricha, ko'b kishilar kiyim o'zgartirib dindan chiqib ketdi, a, buning o'zi bo'lsa, alhamdulillah eskicha, dindan chiqqan emas. Nega desangiz, sallasi hamma vaqt boshida, to'ni bo'lsa, yer supiradir. Agarda ul shundan boshqa fikr bilan salla o'raganda edi, to'n kiyganda edi, aytingiz-chi, uni kim ayblab olur edi, ayb qilishga kimning haqqi bor edi? Yevropa odamlari o'rta asrdan qolgan asarlarga qiziqib qaraydilar... Tasodifni qarang, ko'chada

o'rta asrdan qolgan bir siymo... Hammaning ko'zi shu maymunda... taajjub, muhokama, istehzo, iljayish..." [14;250]

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov tanqidda tahlil qilinadigan asardagi go'zallikni kashf etish san'atini ko'rdi: "Tanqid – bu adabiyotdagi go'zallikni kashf etish san'ati. Ilm boshqacha fikrlashdan boshlanadi" [15;208].

Adabiyotshunos H. Abdusamatovga ko'ra, "Abdulla Qodiriy hajviy va ilmiy-nazariy merosining dolzarbligi yana shundaki, ular hozirgi mustaqillik davrimizda ham g'oyat ahamiyatlidir. Ustoz fosh etgan poraxo'rlar, o'g'rilar, xushomadgo'ylar, dangasalar, ta'magirlar, ig'vogarlar yangicha ko'rinishda mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda" [16].

Abdulla Qodiriy Turkiston jadidchilaridan farqli ravishda mustamlaka zulmidan ozod bo'lish, ilm-fan asoslarini egallashga va shaxs erkinligiga qarshi bo'lgan zararli an'analarning salbiy oqibatlarini ayovsiz fosh qilish uchun satira va yumordan foydalanish, zamondoshlari va yurtdoshlari ongida yuksak estetik g'oya, estetik idealni shakllantirishga intildi. U bunda Sharq adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, qiziqchilik san'atining eng yaxshi namunalari, jahon adabiyoti va rus adabiyotining buyuk so'z ustalari mahoratidan foydalandi. Chunki Turkiston xalqlari boshqa Sharq xalqlari singari G'arb fani va falsafasining ilmiy tushunchalari orqali emas, balki hayotdagi voqea va hodisalarni badiiy obrazlar, kulgili qilib tasvirlaydigan badiiy adabiyot orqali bilish va idrok etishga moyil edi. Satira va yumor, Abdulla Qodiriyga ko'ra, odamlarning jismoniy yoki ma'naviy nuqsonlarini masxara qilishga emas, balki milliy estetik an'anaga muvofiq nomunosib, qo'pol va beixtiyor kulgu uyg'otadigan xarakter kulgusi bo'lishi kerak. Adibning "Kalvak maxzumning xotira daftari", "Toshpo'lat tajang nima deydi" kabi satirik asarlarining qahramonlari jamiyatning ilmiy, biroq hayotdan uzilib qolgan, kulgili va yaroqsiz hayot falsafasiga ega bo'lgan kishilar bo'lib, turli vaziyatlarda o'z so'zlari bilan o'zlarining kulgili, ayanchli va hatto uyatli holatlarini fosh etadilar.

A. Qodiriy mohir kulgi ustasigina emas, balki kulgililik (satirik, yumoristik) san'atining zukko nazariyotchisi sifatida o'zining "Yozg'uvchilarimizga", "26-yilda kuldird'uchilarimiz" kabi maqolalarida "Mushtum" mualliflarini muhim badiiy-estetik prinsiplar bilan tanishtirdi. Adibning ta'kidlashicha, mavzu birinchidan, ijtimoiy va siyosiy jihatdan muhim, ahamiyatli va foydali bo'lishi; ikkinchidan, muallif tanlagan mavzuni sinchiklab chuqur o'rganishi, ya'ni qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmasligi; uchinchidan, muallif xolis, beg'araz bo'lishi; ko'tarilgan muammoni yoritishda shaxsiy manfaat yoki adovatni ko'zlamasligi lozim.

"Kulgi jurnalida ishtirok etish biroz nazokat (mahorat, bilimdonlik, sinchkovlik) talab qiladir. Sizni nafratlantirgan, istehzolantirgan masala yoki shaxsning o'z hayot va xususiyatidan olib, kulgi holiga qo'yishingiz kerak. Ya'ni siz bu kulgulikni sun'iy yasagan bo'lib ko'rinmang, balki o'zi yasalgan bo'lsin. O'z holini o'zi arz qilsin. Toki o'quvchigina emas, hatto kulgiga qolgan raqibingizning o'zi ham chorasiz Siz bilan birgalashib kulishlikka majbur bo'lsin" [17;271].

Abdulla Qodiriy barcha asarlarida ana shu prinsiplarga to'la amal qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibning barcha tarixiy romanlari, felyeton, hikoya va qissalarida kulgi yo'llari: piching, kesatish, kinoya, tag'oful, mubolag'a san'ati hamda xarakterga xos kulgililik o'z ifodasini topdi.

Abdulla Qodiriyning badiiy-estetik qarashlarida etika, estetika va mantiqqa oid tayanch tushunchalar juda muhim o'rin egalladi. Ezgulik, go'zallik va haqiqat Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasida yetakchi, muhim va hal qiluvchi rol o'ynaganligiga, afsuski, rublikamizning taniqli adabiyotshunoslari: Matyoqub Qo'shjonov [18], Umarali Normatov [19], Bahodir Karim [20], Azim Rahimov [21;28-32], Sobir Mirvaliev [22], Ibrohim Mirzaev [23], Ahmad Aliev [24] va boshqalarning asarlarida yetarlicha e'tibor berilmadi. A. Qodiriy o'zining tarixiy romanlari, qissa, felyeton, satirik va yumoristik maqolalarida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, baxt va baxtsizlik, inson hayotining ma'nosi singari umumbashariy axloqiy

muammolarning yechimini shaxs kamolotining muhim omili va o'ziga xos mezon bo'lgan muhabbat singari ko'p qirrali, jozibali tushuncha bilan bog'ladi. A. Qodiriy muhabbatga insonning eng nozik, eng muhim hissiy kechinmasi, insonni ezgulikni qaror toptirish uchun yovuzlik, adolatsizlikka qarshi kurashga undovchi sirli, tasavvufiy hodisa, haqiqatning qaror topishi, deb qaradi. A. Qodiriy romanlarining ilk tanqidchilari, jumladan, Sotti Husaynning "A. Qodiriy "ilohiy muhabbat"ga aniq ishonib, shuni targ'ib qiladi. Ya'ni g'ayritabiyy kuchning borligini isbot qilmoqchi bo'ladi", — deb yozishi va bu bilan A. Qodiriy ayblashi bejiz emas edi" [25].

Abdulla Qodiriyga ko'ra, surat-siyratning mutanosibligi haqiqat, ezgulik va go'zallikning voqe bo'lishidir. Buyuk adib islom va tasavvuf ruhida tarbiyalangan komil inson sifatida Jaloliddin Rumiy, Abu Homid G'azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari buyuk Sharq mutasavvufilarining ilohiy ishqning mohiyati, shaxs kamolotidagi buyuk kuch-qudratini juda chuqur angladi; asarlaridagi bosh qahramonlarning taqdirida bu ilohiy his-tuyg'uning o'rni va rolini ochib berdi.

Buyuk mutafakkir va adibga ko'ra, sof, pokiza va samimiy muhabbat oshiqning barcha go'zalliklarning bosh manbai – Oллоhga bo'lgan ishonch, muhabbat va sadoqati bilan uzviy bog'liqdir. Qodiriy qahramonlarining eng go'zal axloqiy fazilatlarini inson sha'nini haqoratlaydigan xunuklik, yovuzlik, hasad, xiyonat, fitna, zulm, zo'ravonlik, qotillik va yolg'onlarga qarshi murosasiz kurashda kamol topadi, chiniqadi va ezgulik, go'zallik, haqiqatni qaror toptiradi. A. Qodiriy asarlarining bosh qahramonlari aslida yozuvchi orzu qilgan go'zallik, ezgulik va haqiqat uchun tolmas kurashchilardir.

Buyuk nemis faylasufi Gegel o'zining mashhur "Huquq falsafasi" asarida "muhtojlik barcha muqaddas qadriyatlarni haqoratlaydi" [25], — deb yozgan edi.

Abdulla Qodiriy barcha jadidchi-ijodkorlar singari mulkdorlar, sarmoyadorlar, din arboblari, ilm-fan ahlini tarix ijodkorlari deb hisobladi. U bu haqiqatni buyuk arab yozuvchisi va tarixchisi Jo'rji Zaydonning o'n to'qqiz jildlik tarixiy romanlari, ilg'or Yevropa yozuvchilarining asarlari orqali bilgan, o'zlashtirgan edi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyga tengdosh va zamondosh bo'lgan buyuk ingliz tarixchisi va diniy faylasufi Arnold Toynbi (1889–1975) o'zining lokal sivilizatsiyalar nazariyasida ijodkor ozchilik tarix ijodkori ekanligini mantiqiy dalillar va tarixiy faktlar bilan isbotladi. Uning tarixga diniy-falsafiy yondashish metodologiyasi marksizmning tarixni materialistik tushunish va sinfiy kurash nazariyasiga qarshi edi.

Sobiq sovet jamiyatida tanho hukmronlik qilgan markscha-lenincha ateistik dunyoqarash va materialistik dunyoqarashning inqirozga yuz tutishi obyektiv qonuniyatli jarayon sifatida Abdulla Qodiriy targ'ib etgan ijtimoiy-falsafiy va badiiy-estetik g'oyalar umumbashariy ilg'or g'oyalar bilan oziqlanganligidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy jamiyatning ijodkor ozchilikni tashkil etadigan xos ahli-mulkdorlar, sarmoyador ziyolilar, san'at, ilm-fan ahlining ilg'or vakillari tarix ijodkori, avom uchun ibrat bo'ladigan ijtimoiy qatlam sifatida mamlakat istiqboli, milliy ozodlik va milliy taraqqiyot uchun kurashuvchi faol kuch ekanligini yuksak badiiy faktlar, tarixiy dalillar bilan ko'rsatdi.

Qodiriy markscha tarixni materialistik tushunish nazariyasiga zid ravishda: 1) mulkdor, sarmoyador va mansabdorlarning ijtimoiy borlig'ini ularning ongi, dunyoqarashi va ma'naviyati belgilaydi; 2) mulksiz, huquqsiz avomning, ya'ni jamiyatda ko'pchilikni tashkil etadigan mehnatkash xalqlarning ijtimoiy borlig'i qanday bo'lsa, ularning ongi, fikrlash va hayot tarzi ham xuddi shunday bo'ladi, deb hisobladi va shundan kelib chiqib, Qodiriy "haqiqat xalqning birinchi martabada iqtisodini tuzatish, undan so'ng chin ma'rifat berish, ham shular asosiga boshqa masalalarni qo'yishdadur..." [26] — deb yozdi.

Qodiriyga ko'ra, inson mulkdor, sarmoyador bo'lsagina jamiyat, xalq, vatanning porloq istiqboli yo'lida o'qish, izlanish, ozodlik, mustaqillik uchun kurashga bel bog'laydi. Inson mulkdor bo'lmay turib, erkin, ijodkor va kurashchi sifatida ko'pchilik avomga ibrat bo'la

olmaydi.

A. Qodiriy jadidchilik g'oyalarining buyuk targ'ibotchisi sifatida milliy ruh, milliy ong va milliy mafkurani yaratishda yurt hukmdorlari, ziyoli va olimlari, avvalo, Vatan ozodligi, mustaqilligi yo'lida kurashmog'i uchun yurtparvar, erkparvar, taraqqiyparvar millat otalari zarurligini anglab yetdi. Ana shunday pokiza qalbli, imon-e'tiqodli, adolatli hukmdorlar, mansabdorlarning olijanob insoniy fazilatga, donishmand aql-idrok, nafosat va jasoratga ega ekanligini Yusufbek Hoji, Otabek, Normuhammad qushbegi, Alimqul, O'tabboi qushbegi singari tarixiy shaxslar timsolida ko'rsatishga harakat qildi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi bosh qahramonlarning barchasi uchun go'zallik, ulug'vorlik, ezgulik va haqiqat uchun kurashish xos edi. U asar qahramonlariga xos go'zal fazilat, ezgu amal va odillikni tavsiflamaydi, balki jonli hayotda aniq va lo'nda qilib ko'rsatadi. Shu o'rinda "O'tkan kunlar"da ham asar qahramonlari bilan tanishtirmay turib, ular qo'ngan saroydagi eng ko'rkam hujraga o'quvchi e'tiborini qaratadi: "Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiyiz to'shalgan holida bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda (u yerda) bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora chiroq sasiganda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida, bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda: og'ir tabiatlik, ulug'gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murt sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarlik edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'ltirg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lg'an Yusufbek Hojining o'g'li Otabek" [27;31].

Abdulla Qodiriy o'z qahramonlarini hali turli vaziyatlardagi fe'l-atvori, axloqi, ichki olamini ko'rsatishdan oldin ularning tashqi qiyofasini ichki olamiga mutanosib tasvirlaydi. Homidning tashqi ko'rinishini shunday tasvirlaydi: "Uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chaqir ko'zlik, chuvak soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, "Homid xotunboz" deb shuhratlangan" [28].

Shu o'rinda A. Qodiriyning tutgan pozitsiyasi o'zini oqlaydi: go'zal, ko'rkam qahramonning ma'naviy olami, niyati va qarashlari ham yuksak, olijanob va go'zal bo'lishiga va aksincha, badbashara, xunuk, axloqsiz personajning dunyoqarashi tuban, tor, qashshoq va g'ayriinsoniy ekanligiga kitobxonda ishonch hosil bo'la boshlaydi. Bunda, albatta, adib A. P. Chexovning: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lmog'i lozim: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham" degan mashhur hikmatiga amal qilgan bo'lishi tabiiydir.

Yozuvchi jamiyatning eng yuqori qatlamiga mansub bo'lgan sarmoyador, boy, savdogarning suhbatlari mavzui sifatida Turkiston xalqlari uchun g'oyat muhim bo'lgan ikki ijtimoiy masala: xotin-qizlarga, oilaga bo'lgan munosabat va Turkistonni mustamlaka zulmidan ozod qilish masalasini qo'yadi.

Adibning Kumushbibi tavsifiga e'tibor beraylik: "Uning qora zulfi paryostiqlarning turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingila kiprik ostidagi timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqqa aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o'lturdi. Sariq rupoh atlas ko'ylakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'lturgach, boshini bir silkiydi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'igan soch tolalari o'rab olib jonsuz (jon o'rtovchi) bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi Kumushbibi edi" [29].

A. Qodiriy tabiat va inson go'zalligi hamohang, bir-biriga mutanosib ekanligini,

qahramonlarining zohiriy va botiniy go'zalligiga mos ravishda hatto tabiat ham olqishlayotganiga kitobxonni ishontiradi: "Kumushbibini ariq bo'yidan bir o'rinni ko'zladi-da, sakrab narigi yuziga o'tdi va cho'nqaydi. Uning ko'zlari muloyimgina suv ustiga og'dilar. Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshgina oqib kelar, Kumushbibining qarshisiga yetkanda go'yoki uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohira (sehrchi qiz)ning sehriga musahhar (sehrlangan) bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistagina ko'priki ostiga oqib ketar edi... Qo'l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning yuzini o'pib tushgan suv tomchilari bilan ariq harakatga kelib chayqaldi, go'yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi..." [30].

Niyati buzuvchi, qashshoqlik tufayli insoniy sifatdan ajralib Homid xotunbozga malaylik qiladigan Sodiq va uning onasi Jannat yashaydigan uyning tavsifi kitobxonda nafrat va jirkanish hissini uyg'otadi: "Hovlining sharq va janub tomonlari buzilib-yorilib yotgan eski xaroba imoratlar bo'lib, hovli yuzi turlik axlatlar bilan bulg'anch, go'yo yillardan beri tozalanmagan, supurgi ko'rmagandek edi... Bu xonadonning oshxonasi bo'lmagani uchun bo'lsa kerak, haligi ayvonning bir burchagiga o'choq qurilgan. Tutunlar bilan ayvon deganimiz qop-qora is, go'yo ayvon bo'lg'aniga ont ichmakda. Buning ustiga o'choq boshidagi tovoq-qoshiqlar, tog'ora va qozonlar tartibsiz ravishda iflos yotarlar, qozon tevaragida uymalashmakda bo'lg'an uch-to'rtta tovuqlar mundagi ifloslikni yana bir qat oshirmoqda edilar... Uyning yarmisi quruq yer – qora shibdan iborat bo'lsa-da, ammo to'rida chaqich bog'lab yiltiramakda bo'lg'an – kir, yulduz kabi ilma-teshik jafokash oq kiyiz, ham taxmondagi eski sandiq ustiga yig'ib qo'yilgan bir to'da paxtasi chiqqan uvalar ko'rpa-yostuq otini o'z ustilariga olur edilar. Bitta tokchadagi cheti uchgan, qoni qochgan uch-to'rtta piyola va bir qora qumg'onni, ikkinchi tokchadagi umrida yuvinib ko'rmagan qora mis barkashni, bo'sh qoziqlar ko'ngli uchun osilgan bittagina kir dasturxonni tilga olish bilan bu hovlining butun jihoz – amlokiy ro'zg'orini yozib chiqilgan bo'linur, burchakdagi tokchada qattiq non mujib o'ltiruvchi sichqonni ko'rsatib o'tilmasa bu uyda boshqa jonliq zot ham ko'rinmas edi..." [31].

Bu bilan Abdulla Qodiriy ilmsiz avomning hayot va turmush tarzi qanday bo'lsa, ularning fikrlash tarzi, estetik didi, axloqiy qarash va fe'lu atvori ham xuddi shunday bo'ladi, degan qoidaning haq ekanligini o'z asarlarida yaqqol ko'rsatdi.

Xulosa. Abdulla Qodiriyning badiiy-estetik qarashlarini tadqiq etish hozirgi globallashuv jarayonlari milliy badiiy-estetik qadriyatlarga jiddiy tahdid solayotgan, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklashda juda muhim ilmiy-nazariy va tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Shuningdek, adibning badiiy-estetik prinsiplari xalqimizning estetik did, estetik qadriyat va ideallarini kamol toptirishda, ijtimoiy hayotdagi illatlar, zararli odatlarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: Info capital Group, 2017.
2. Ro'zmatzoda Q. Jamiyatni shaxslar, davlatni siyosatchilar boshqaradilar yoxud nega shaxs muammosi faylasuflar e'tiboridan chetda qoldi? – *Markaziy Osiyo Renessansi*, 2021, №1.
3. Abdurahmonov G'. "Qodiriyning uslubi haqida" – *O'zbek tili va adabiyoti*, 1994, № 4–6, 38-bet.
4. Yoqubov O. Qodiriy haqida so'z. Adib tavalludining 90 yilligida so'zlangan nutq. – *Yoshlik*, 1990, №3, 8-bet.
5. Karim B. Abdulla Qodiriy fenomeni: monografiya. – T.: Info capital Group, 2019. 480-bet.
6. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: "Adabiyot va san'at", 1983. 32–38-betlar.
7. Qosimov K. "Abdulla Qodiriyning diniy va tasavvufiy qarashlari" – *Science and Innovation. International Scientific Journal*, volume 1, ICCUE 5, UIF-2022: 8,2, 1 (V5), 455–

456-betlar.

8. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: Info capital Group, 2017. 315-bet.
9. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy (Jamol Kamol tarjimasi). – T., 2010.
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., 2004.
11. Abdusamatov H. Hajviya nazariyasi. – *O‘zas*, 1994 yil 16 sentyabr.
12. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., 2004. 208-bet.
13. Abdusamatov H. Hajviya nazariyasi. – *O‘zas*, 1994 yil 16 sentyabr.
14. Bahodir K. Abdulla Qodiriy fenomeni. – T.: Info capital Group, 2019.
15. Rahimov A. Qodiriyning adabiyotga qarashlari. – *O‘zbek tili va adabiyoti*, 1994, № 4–6, 28–32-betlar.
16. Mirvaliev S. O‘zbek romani. – T., 1969.
17. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. – T., 1967.
18. Aliev A. Abdulla Qodiriy. – T., 1967.
19. Sotti Husayn. A. Qodiriyning “izohlari” munosabati bilan. – “*Sharq haqiqati*”, 1930, №9, (14–17 yanvar sonlari). // Abdulla Qodiriy. Obid ketmon. IV. – T., 2017. 430-bet.
20. Gegel. Filosofiya prava. – M., 1976.
21. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. I. – T.: Info capital Group, 2017. 31-bet.